

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAHSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**Toshkent Davlat Iqtisodiyot
Universiteti**

REFERAT

"GIYOHVANDLIK"

Bajardi:Yoqubova N

Tekshirdi:Komilova D.B.

Toshkent-2011

GIYOHVANDLIK

Reja

- 1. Giyexvandlik tushunchasi va kelib chikishi tarixi.**
- 2, Giyoxvandlik turlari, klinik alomatlari va asoratlari**
- 3.Giyoxvandlikni davolash va oldini olish**
- 4. Toksikomaniyalar**
- 5. Uzbekistan Respublikasida giyoxvandlik bilan kurashish.**

1. Giyexvandlik tushunchasi va kelib chikishi tarixi.

Narkologiya - psixoaktiv moddalarni suiste'moli natijasida kelib chikkan kasallarni davolash, reabilitatsiya qilish.

Narkologiyaning vazifalari quyidagilardan iborat: kasalliklarni oldini olish, tashxis qiyish, tibbiy yerdam kursatish.

Narkotik moddalarning ruyxati birinchi marta 1961 yildagi Xalkaro Konvensiyada tuzilgan va ularga opiy, nasha, kokoin kiritilgan. 1971 yilda ikkinchi Xalkaro Konvensiyada birinchi ruyxatdagilar va psixotrop moddalar kiritildi, 1981 yilda uchinchi Xalkaro Konvensiyada oldingi ruyxat yanada kengaytirildi va ularga perekursorlar kiritildi (atseton, etil spirti, xlorid kislotasi, uksus kislotasining angidridi, fenil uksus kislotasi, toluol). Yak in vaktida esa uksus, dixloretan, margansovka kiritildi.

Giyexvandlikning tarixi juda kadim zamonlardan boshlanganligi xakida anchagina ma'lumotlar bor. Opiy bundan 600 yi! awal kulanilgan, uning uxlatuvchilik ta'siri eramizdan avval 18 asrda urta dengiz xalklariga ma'lum bulgan. Eramizdan oldingi yashagan tabobatning otasi Gippokrat opiyni kasalliklarni davolashda kullagan.

Eramizdan avvalgi IV asrda Aleksandr Makedonskiy kuknori usimligini Janubiy Osiyega keltirilgan. Opiydan tayerlangan eritma yutal, ichburug, uykusizlik, ogrik, kon ketish, ozib ketish, kuvvatsizlikda kulanilgan. Kadimda opiy tabobatda keng kulanilgan.

XIX asrning ikkinchi yarimidan boshlab, preparalar murakkab jarroxlik ishlarida kulanilgan. Jarroxlik operatsiyasidan sung ogrikni koldirish uchun bemorga opiy berilgan. Kuchli ta'sir etuvchi antibiotiklar topilguncha kadar ichburug bilan ogrigan bemorlami opiy berib davolanar edi.

Giyexvandlikning ortib borish munosobati bidan davolash muassasalarini giyexvand moddalar bilan ta'mini ash borgan sari kamayib bormokda.

XIX asrning boshlarida Germaniyada Fridrix Sertyuner va Fransiyada Arman Segen birinchi marta morfın preparatini oldilar. Morfiyni kuknori usimligining ma'lum navidan ola boshladilar. U uxlatuvchilik xususiyatiga ega.

XIX asrning 30 yilarda ikkinchi preparat opiy-kodein olinadi, bu preparat ogrik koldirish xususiyatiga ega. Vakt utishi bilan opiy va uning preparatlari Yevropada keng tarkala boshladi.

Osiyc mamlakatlarida nasha chekish, opiy kabul kilish keng tarkalmokda. Keyinchalik opiyan geroin ajratib olindi. U opiya karaganda 48 marta kuchli. Kupgina giyexvand moddalarni tabobatda kullash urniga uni kimmatga sotishni afzal kurdilar.

Urta Osiyeda xam nasha chekish giyexvand modda kuknorini jstc'mol kilish keng tarkalغان edi.

XX asrda giyexvand moddalarni iste'mol kilish, uni sotish juda tez rivojlanib ketdi. Shvetsiyada 12 yeshli usmirlarning xar loOotasidan 26tasi giyexvand moddasini iste'mol kilar ekan, AKSHdagi giyexvandlarning 500001 an oritigi geroin kabul kilar ekanlar.

Yaponiyada 9 yil ichida giyexvandlarning soni yeshlar orasida 10 marta kupaygan. Geroin va uning xom-ashellarini ishlab chikarishda Tailand, Birma, Laos mashxur "Oltin uchburchak" xisoblanadi. Pokiston, Afgoniston, Eron mashxur "Oltin yarim oy" xisoblanadi. Narkotik moddalariga urganib kolish yeshlar, usmirlar orasida kup uchramokda. Endi Urta Osiye mintakasiga kelsak narkotik moddalarini jumladan opiy yetishtiruvchilarning soni keyingi yillarda kupayganligi va shuning uchun narkomanlar sonining kupayganligi sir emas.

Narkotik moddalar shugallanish va tarkatish borasida Afgoniston asosiy urini egallamokda, 2002 yilarda u yerda giyexvand moddalarning rekordlik soni yetishtirilgan (1998 yiodagi kabi). Bizning Respublikada geroinning 90% dan kupi Afgonistondan utkaziladi, buning asosiy yuli - Tojikistondan, Respublikada milliy axborot taxlil markazi, kinologik markazi faoliyat kursatmokda. 1995 yilda Ruspublika Birlashgan Millatlar tashkilotining Konvensiyalarga kushildi (3-ta konvensiya). Giyexvand moddalar buyicha Davlat dasturlari kabul kilindi. Bu dasturni 2002-2005 yillarda tasdiklash uchun farmon e'lon kilindi.

Bugungi kunda giyexvandlik ayniksa, kon tomirlari orkali giyexvand moddalarni yuboruvchi shaxslarning kupayetganligi, OITS kasailigining kupayib ketish xavfini tugdirmokda.

Shunday ekan, bu ogir dardlarga yeshlarimizning chalimasliklari uchun kandaishlarni kilmogimiz lozim. Awalombor, oilalarimiz boshliklari bulgan ota-onalar voyaga yetib kelayetgan farzandlarining yurish-turishlari va xulk atroflaridan doimo xabardor bulishlari kerak.

Yeshlarning ukish yeki ishlari bilan bandligini bilish, ularning oshna-ogaynilari, dugonalarining kimlar ckanligidan xabardor bulishlari, ya'ni ichkilik va giyexvandlik moddalarini iste'mol kilishdari yeki giyexvand moddalarini kon-tomirlari orkali yuborishliklarini va ma'naviyatimiz kay darajada boshkarayetganini doimiy nazorat kilish zarar, oila a'zolaridan tashkari bu ishlarni kuni-kushni va maxalladoshlari xam chetda bulmasliklari kerak. Mabodo, ayrim yesh yigit va kizlarimizda yukorida bayen kilingan salbiy xulk-atvorlar sezilsa, darxol ularning ota-onalari va maxalla faollari bilan birgalikda bu yesh larning tarbiyasini yaxshilash buyicha chora-tadbirlar rejasini kurmoklari zarur.

2. Giyoxvandlik turlari, klinik alomatlari va asoratlari

Bu savolimizda narkotik moddalarning ayrim turlarida tuxtalib utamiz:

1) nashaning xar xil turlaridan olingan preparatlari kullanilishida yuzaga keladigan narkomaniyalar: bu guruxga nashaning turi navlaridan olingan narkotiklar - marixuana, gashish, bang, kif, xusus, plan, xaras, dagga kiradi. Usimlikning vatani Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika mamlakatlariidir.

Nasha tarkibidagi aromatik aldegid - konnabiol ra'sir kursatadi, uning mikdori mastlik molatini yuzaga chikarishda katta rol uynaydi.

Nashani turlicha - chaynash, chekish, ichimlik tayyorlash bilan kabul kiladilar. Nasha ta'siri 15-30 minutdan sung boshlanadi. Birinchi marta chekilganda - kungil aynish, ogiz achishi, sulak

ajralishi, yengil bosh aylanishi xollarini keltirib chikaradi. Bunga karamasdan chekuvchilar chekishni davom eltiraveradilar va bunday yokimsizliklar utib ketadi. Odatda, nasha ta'siri ba'zi bir jismoniy sezgilar, masalan. tashna bulish, ochlik, shillik pardalarning biroz kurishi bilan boshlanadi. Sung badanga issik yuguradi va butun tanaga yoyiladi. Yengil tortish, vaznsizlik rivojlanadi. Irgishlash, raksga tushish xomishi paydo bbiladi. Bunda odam kup kuladi, sal xarakatlanish, gavda xolatini sal uzgartirish betuxtov kulgu xurujiga sabab buladi.

Fikrlashlar sur'ati tezlashadi, fikrlar kuyilib keladi, bir-birining urnini bosib ketadi. Suzlari kup, gaplari tartibsiz, anik fikrni ifodalamaydi. Nashavand atrofdagilar bilan bulgan mulokotini yukotadi. atrofdagilar u bilan birga xursandchilik kilmayotganlaridan ajablanadi, jaxli chikadi, kaxrga tuladi. Nashavand gox dargazab, gox kaxrli, gox kutarinki ruxda xushchakchak, uzida yuk xursand-ekzaltatsiyaga yetib boradi. Shu vaktida tuxtovsiz fantaziyalar va illuziyalar paydo buladi. Butun borlik rango-rang tusga kiradi, tovushlar kuchi guvillab eshitiladi.

Tasvirlab utilgan xolatlar nasha mastligining birinchi fazasi kuzgalish boskichini ta'riflaydi.

Bundan keyingi ikkinchi faza - tushkunlikka tushish boskichi keladi. Ba'zi bir kashandalar aytishlaricha, bir boskichdan ikkinchisiga tez utiladi. Boshkalari esa, aksincha, atrof muxit asta-sekin uzgara borib, ranglar guyo xira tortadi, illuziyalar yukoladi, fantaziya yukoladi, fikrlash sur'ati keskin tormozlanadi. Sung kurkuvarlar paydo bulib, kayfiyat keskin yomonlashadi.

Nasha mastligining simptomlari kabul kilingan narkotikning mikdoriga, uni kanchalik tez-tez kabul kilinishiga, shaxsning oliy nerv faoliyati xususiyatlariga boglig buladi. Nashadan utkir mast bulish 1-3 soatgacha davom etadi va ogir uyku yoki bexollik xamda lokaydlik bilan tugaydi.

Nashani yanada suiste'mol kilib borganda, mastlik manzarasi uzgaradi. Ba'zilar psixozlar es-xushining ruy-rost aynashi, kurish, eshitish gallyutsinatsiyalari, munosabat vasvasasi goyalari, ba'zan keskin xarakat kuzgolishlari bilan yuzaga chikadi. Boshkalarda esa iroda buzilishlari paydo buladi, shaxsning psixopatiyasi yoki xatto shizofreniyasimon simptomlar yuzaga chikishga olib keladi. Nashani muntazam kabul kilganda 2-6 oyga kelib, psixik asteniya paydo buladi, xotira pasayadi, narkoman dustlari va urtoklarini yukotadi.

Vakt utishi bilan tuygu-xissiyotlar xiralashadi, apatiya yuzaga keladi, atrofdagilardan chetga chikib koladi, ta'kiblanish, munosabat vasvasasi goyalari boshlanadi.

Mi sol keltiramiz.

Bemor M.. 27 yashar, politexnika institutining 2-kurs studenti. Xarakteriga kura xamma bilan chikishib ketadi, dustlari kup. 9 sinfda kunlaridan bir kun uz tengdoshlari bilan kechuurun uifatchilikda birga buldi, shu yerda yoshi undan kattarok bir yigit nasha chekib kurishni taklif kildi. Bunga kadar u papiros chekishni urganib olgan edi. Oldiniga chekishni rad etgan buldi, birok atrofdagi chekkan bolalarning kayfiyatlari chog, kulishlarini kurib, kizikib chekdi. Ogiz bushliuida yokimsiz ta'm sezdi, bir necha marta tortgach boshi aylandi, kungli aynidi. Papirosni uloktirdi. Atrofdagilarning masxara kilib kulishlariga chidadi, biro bu okshom boshka chekmadi. Birok tez kunda usha ulfatlar

bilan yana birga bulishga tbigri keldi va durastgina chekdi. Dastlab, tevarak ravshan bulib ketgani, atrofdagilar xuddi parda ortidan kurinayotganday bulgani, bir laxzada dunyo yop-yorug tusga kirgandek, zur shovkin-suron eshitilgandek tuyulganini yaxshi eslaydi. Urtoklari unga turli «basharalar» kursatganlar va u, taxminan, tuxtovsiz 2-3 soat kulgan. Key in ogzida kandaydir yokimsiz ta'm paydo bulgani, kurkuv bosganini, guyo u akldan ozganday tuyulgani, tashkariga kochib chikkani, ammo dustlari uni uyga tortib kirgani esida. Bir vakt xuddi yuragi tux tab kolayotganday bulgan va dod solib yuborgan. Sung xammasi utib ketgan, uyku bosgan.

Institutga kirgunga kadar u boshka chekmagan. 1-kursda nasha chekkanini maktanib, yana chekkan. Shundan keyin tez-tez mast bulguncha chekadigan bulgan. Asosan ijobiy emotsiyalar kayd etiladi. Xushnudlik xoliga kaytishga bulgan intilish nasha tikilgan papiros chekishga tortardi. Nasha xamma vakt xam topilmasligidan urniga ichkilik icha boshlagan.

Bemorning ota-onasi va uzining aytishicha, uydin ketib kolishga xarakat kilgan, jizzaki, dagal, urishkok bulib kolgan. Institutda xamma darslaridan ko lib ketgan va xaydalgan. Kitobga, kino, televizorga kizikmay kuygan. Yolgiz kolishga xarakat kilgan, turli xil yolg'on-yashik nayranglar bilan ichkilik yoki nasha topishga intilgan. Vakti-vakti bilan uni birov orkasidan kuzatayotganday, kimdir ta'kib kilayolgandek tuyulgan. Dastlab bunga axamiyat bermagan, sung esa soxta kuzatuvchilardan kurkib yashirina boshlagan. Kunlardan bir kun ushbu masalada yordam surab militsiyaga murojaat kilgan. U yerda buning suziga axamiyat berishmagan. Shundan keyin beshbattar tushkunlikka tushib, depressiya, mayuslik zuraygan. Ota-onasi uglining bu axvoliga e'tibor berib, uni zurlik bilan psixiatriya kasalxonasiga joylashtirishgan. Statsionarda ruy-rost depressiv-vasvasali sindrom kayd kilindi.

Narkotikdan deyarli kiynalmasdan ajraldi, birok bir necha marta tashkaridan uni kulga kiritishga urindi. 4 oylik kuchli davolashlardan sung chikarib yuborildi. Davolash mobaynida unga dezintoksikatsion, umumkuwatlovchi, shuningdek, psixoterapiya, mexnat bilan davolash tadbirlari kurildi.

2. Morfin narkomaniyasi: narkotiklarning mazkur guruxiga opiy va uning preparatlari - pantopon, omnopon, peregorik, laudonon, pektol, opionon va 20-ga yakin alkaloidlar va opiy xosilalari - morfin, kodein, tebain, heroin, dionin, papaverin, narkoten kiradi. Bu gurumga morfinsimon ta'sir etadigan sintetik moddalar - fenadon, promedol xam kiradi.

Morfin tipidagi narkomaniyalar kuknor ekib ustiriladigan joylarda uchraydi. Bu preparatlarga urganib kolish nisbatan tez yuzaga keladi. Opiyni ichish, teri ostiga, vena ichiga yuborish yoki chekish orkali kabul kilinadi. Ulimga olib keladigan sof moddaning mikdori 0,3-0,5 g.

Utkir zaxarlanish goyat kuchli ifodalangan kuzg'olishlar yuzaga keladigan eyforiyalar bilan xarakterlanadi. Ayni vaktida ogiz kurib, tanaga issik yugurganday buladi, odam bushashib tushadi, kulok shangillaydi, bosh ogrigi paydo buladi. ter chikadi. Kup siydik ajraladi, yurak-tomir va nafas sistemalarida buzilishlar kuzatiladi. Es-xushi uzgargan buladi. Ogir kechganda kukarish, sonli ich

ketishi kuzatiladi. Teri kichishi, turli xil toshmalar paydo bulib, yuzi kukimtir-kizgish tus oladi, mudrok bosadi va chukur uykuga ketadi. Narkotikni xronik kabul kilganda eyforiya, kayfchoglik, begamlik, xotirjamlik, xamma narsadan mamnunlik, ba'zan esa illuziyalar kuzatiladi. Tez fursatda bir necha bor opiy kabul kilgandan ung odam shirin xayollar ogushida bulib, ajib xissiyotlarni boshdan kechiradilar, xuzur-xalovat girdobida buladilar. 30-40 minutdan keyin eyforiya fazasi urnini mudrok egallaydi, shiringina bulib bushashadi.

Morfin narkomaniyasidan buladigan xumorlik narkotikning oxirgi dozasini kabul kilgandan keyin bir necha soat yotgach boshlanadi va 5-7 kun davom etadi. Bunda terlash, kuz yoshi okishi, burin okishi, kaltirash, kungil aynishi, kusish, xarorat kutarilishi, nafasning tezlashishi, muskullarning ogrishi, organizmdan suv kochishi va ozish kuzatiladi.

Misol keltiramiz

Bemor B., 27 yoshar 8-sinfda uzidan katta bolalar bilan dustlasha boshladi. Usha vaktlarda nasha chekib kurdi, nasha unga yokib koldi, tez urgandi, bir xaftadan keyinok chinakamiga chekadigan bulib koldi. Ukishi yomonlashdi, darslarni koldirdi, ukituvchilari bilan urishadigan buldi, bir amallab 8-sinfni tugatdi. Tez orada kuniga 3 martadan chekadigan buldi. Miyasida turli-tuman fikrlar kupayar edi, xayollar ogushiga berilar edi, dastlab kup kulardi, sung kulgu va xushchakchaklik yukolardi. Keyin birinchi bor uziga 0,5 ml opiy yubordi, bu unga yokdi. Keyin ushbu mikdor yetarli bulmay koldi. Asta-sekin uni xar kuni 2 marta 2 ml gacha yuboradigan buldi. Sbiugra urtacha doza bir sutkada 1 g kuruk opiy kabul kilishgacha borib yetdi. Xarakteri uzgara boshlandi. Jizzakilik paydo buldi, urishgani va ugriligi uchun jinoiy javobgarlikka tortildi. Sung armiya safiga chakirildi. Armiyaga ketish oldidan birmuncha kuruk opiyni uzi bilan birga olib ketdi. Opiy kabul kilishni tuxtatmadi. Ammo kulidagi opiy tamom bulgach, xumorlik azobida koldi. Butun badani bushashib ketdi, etiklari bir puddek ogir bulib ketdi. Ovkatdan keyin me'dasida ogrik, jigildon kaynash, jigar soxasida ogrik kayd kilgan. Sungra psixiatriya kasalxonasiga yuborilgan. Kasalxonaga kelib tushganida xamma yeri, muskullari ogrirdi, bexol, ichi suyuk, uykusi buzilgan, kuzlari yoshli edi. Suxbat chogida tez charchardi, kuz yoshlari bilan yordam surab iltijo kilardi. 3-sutkada axvoli birmuncha yaxshilandi. Xumorlik xolati 7 kun deganda tarkadi. Ammo asteniya, umumiy xolsizlik, kuziga yosh kelishi, tez charchash xolati uzok saklanib koldi.

Psixika tomonidan vaximalar, bezovtalanish, besabab uzidan-uzi ulib kolish xayoliga borish xollari kuzatiladi. Uyku buziladi, daxshatli tushlar kuriladi.

Kayfiyati uzgarib turadi: gox yengil eyforiya, uz shaxsini yukori kuyish, imkoniyatlarini yukori baxolab yuborish, gox kayfiyati buzilib, depressiya xoliga tushishi, gox ta'sirlanuvchan, gazabkor, lokayd va tajovuzkor bulib turadi. Es-xush uzgarishi bilan yuzaga chikadigan kiska muddatli psixozlar uchraydi.

3. Kokain narkomaniyasi: bu guruxga asosan kokain kiradi. Kokain bilan utkir va xronik zaxarlanish fark kilinadi.

Utkir zaxarlanish yuz okarishi, umumiy bexollik, bosh aylanishi, yurak uynashi, tomirning notugri urishi, xalloslash bilan xarakterlanadi. Keyinchalik kon aylanishining keskin buzilishi va nafas funksiyasining izdan chikishi kayd kilinadi. Nafas markazi falajlanishi okibatida bemor xalok bbilishi mumkin.

Xronik zaxarlanish preparatni uzok vakt kabul kilish okibatida asta-sekin vujudga keladi. Kokainning dastlabki dozalarini kabul kilgandan sung awal yengilgina bosh aylanishi, sal bosh ogrishi bulib, tez orada akliy faoliyatining kuchayishi va kayfiyatining yokimli tus olishi bilan almashinadi. Bemorlar kuplab xatlar yozadilar va takrorlashlar bilan tulib-toshgan arizalar yozadi. Kuzgalish 2 soat davom etadi, sung xolsizlik, lokaydlik, tushkunlikka tushishi bilan almashadi. Illuziya va gallyutsinatsiyalar paydo buladi, ba'zi ular kurkuvlar bilan kechadi. Kokainga ancha tez urganiladi, ish malol kela boshlaydi, sekin-asta xotira pasayadi. Narkomanlar dagal va xudbin bbilib koladilar. Gumonsiraydilar, shubxalanuvchan buladilar. Kasal laming ishtaxasi pasayadi. Terisi okargan, muskullari salkigan buladi. Ba'zilariga guyo teri ostiga kokain kristallari solib kuyilgandek, ten ostida kurt-kumurskalar, kbingizlar urmalab yurgandek tuyuladi. Rashk vasvasasi xam bulishi mumkin. Kokainga urganib kolganda preparatning zararli ta'siri awalo giyexvandning uziga ziyon yetkazadi. Organizmning xoldan toyishi, reaktivligining pasayishi tufayli yukumli kasal liklarga moyillik ortadi. Chipkonlar chikadi, ilgarigi xronik kasalliklar kaytalanib zurayadi.

Jamiyatga yetadigan ziyon shu narsa bilan boglikki, kokainni suiiste'mol kiluvchi odam asta-sekin mexnat kollektividan chetlashadi, tckin-xbirlik ybiliga kiradi, parazit tarzida xayot kechiradi. Ular jamiyatga karshi jinoyat kilishga mam kodir bbilib koladi.

Kokainga tez urganib kolinadi, sung preparatga tolerantlik paydo buladi, eyforiyani kutarish va charchoklikka karshi kurashish uchun modda dozasini oshirishiga ishtiyok tugiladi.

Narkotikning navbatdagi gruppasini dietilamid lizergin kislotasi, ba'zi bir kbizikorinlar tarkibida buladi gan LSD - ergonovin psilotsibinning yarim sintetik xosilasi tashkil etadi.

LSD bilan utkir zaxarlanishda kungil aynish, kusish, sulak ajralishi kuzatiladi, arterial bosimi pasayadi, kuzgalish boshlanadi, falajlar va xatto ulim yuz berishi mumkin.

Psixik uzgarishlar (buzilishlar) preparatni kabul kilgandan key in 15-30 kun utgach paydo buladi va yengil alkogol mastligidagi xolatni eslatadi. Sung umumiy bexollik boshlanadi, kul va oyoklar bilan zurga xarakatlanadilar. Kuzlar yumuk va kuz ungidan xuddi kinofilmdagidek turli xil manzaralar utadi. Tovushlar baland eshitiladi, narsa-buyumlar uzoklashgan bbilib kurinadi. Kurish gallyutsinatsiyalari yorkin, rang-barang buladi, ammo shaxsni xursand kilmaydi. Sung depressiya elementlari va soxta idrok kushiladi. Xayotdan voz kechish fikri tugiladi. Fikrlash buziladi. Kurkuv, shubkalanish paydo buladi.

4. Uyku dorilarni kabul kilish tufayli kelib chikadigan narkomaniyalar (yogonrok bulishi lozim). Uyku dorilarni tez-tez kabul kilish okibatida odam ularga urganib kolib, narkomaniya rivojlanadi. Uyku dorilarga: barbituratlar gurukiga kiruvchi preparatlar (veronal, medinal, lyuminal,

barbamil, nembital, siklobarbital, geksoabarbital) piradin preparatlaridan (tetridin, noksiron, ortonol kiradi). Uyku preparatlarini dastlab shifokor maslahati bilan, sung bemorning uzi uzok muddat kabul kilishi natijasida bularga urganib koladi. Oz mikdorda uzok muddat kabul kilish natijasida koordinatsiyaning buzilishi, muskul kuwatining kamayishi, reflekslarni pasayishi, kon bosimining pasayishi, xaroratning kutarilishi kuzatiladi.

Uyku prepartlarini tez-tez kabul kilish tufayli odamda bularni kabul kilish extiyoji ortib boradi. Bui day narkomanlar ta'sirchan, kuzgaluvchan, xotirasi sasaygan bulib koladilar. Ten kul-oyoklari, ogizning shillik kavatiga turli toshmalar toshadi. Uyku dorisini 3-4 kun ichmay kuygandan sung bemorda abstininit xolat yuzaga keladi: uykusizlik, umumiy kuvvatsizlik, bosh aylanish, kusish, kungil aynish va boshka xolatlar yuzaga keladi. Dori suiiste'mol kilinsa "enselopatiya" (bosh miyaning zararlanish) kuzatiladi va epilepsiya belgilari yuz beradi. Bunday kasallar pol, agressiv, badjaxil, raximsiz buladilar, olti oy kabul kilganlarda psixoz vujudga keladi.

3. Giyoxvandlikni davolash va oldini olish

Narkomaniya va toksikomaniyalarni davolashning asosiy koidasi - bemor xumorlik sindromi xolatidami, utkir zaxarlanish, xronik zaxarlanishdami yoki psixozdami bundan kat'iy nazar bemor kasalxonaga yetkaziladi. Statsionarda davolash narkologik, psixiatrik asosida utkaziladi. Davolashning asosiy vazifasi boskichli davolashdir va bularga:

- bu moddalardan xalos etish bilan birga dezintosikatsiya (zaxarlanishni уык kilish), umumiy kuvvatlovchi, stimullovchi davolash;
- aktiv antinarkomanik (narkomaniyaga karshi), antitoksikomanik (toksikomaniyaga karshi) davolash;
- kuvvatlantiruvchi terapiya kiradi.

Narkomanlar va toksikomanlar uz istiklari bilan davolanishni xoxlasalar xam xumorlik xolati kuzatiladi. Krizlari bbilishidan oldin xamisha xavfda, kurkuvda buladilar. Odatda bular irodasiz kishilardir. Ular narkotik moddalardan ajralib kolishdan va uning orkasidan keladigan uta ogir sezgilarga bardosh berishlari kiyinligidan kuruadilar. Shuning uchun davolanishni boshlashdanok ular sulib koladilar va kanday yul bilan bulmasin narkotik moddalami iste'mol kilishni, kaytadan boshlashga urinadilar.

Shuning uchun bulimlar yoki palatalar tashkil kilishda, ularda albatta kasallar suiiste'mol kiladigan narkotik yoki boshka moddalar kiritish imkoniyati mutlako bulmasligi kuzda tutiladi. Kasallarning kun tartibi imkoniyati boricha aktiv band bulishga karatilishi kerak, ayniksa kechki soatlarda, biror faoliyatga urganmagan narkomanlar uzlarining kungilsiz kechinmalari ogushida tanxo kolganlarida bu juda zarur.

Kasallarning xulklari va umumiy axvollari aloxida dikkat e'tiborda bulishi zarur.

Agar tushkunlikka tushib yurgan kayfiyati past bemor birdaniga xushchakchak, sergap bulib, aktiv xarakat kilib kolsa, bilingki, ta'minlangan yullardan utib, narkotik moddani kulga kiritishga erishgan. Narkotik moddani keltirgan manbaani kidirib topib, jazolash lozim.

Davolashning 2-3 xaftalarining oxirida, muvozanat turgun bulmaganda xam, narkotiklarni iste'mol kilishga bulgan kayta intilishni yengib bilmaydigan davrda kasallarga diqqat e'tiborni kuchaytirish lozim. Bunday xollarda ular bezovta, betinch yoki aksincha uzlarini yaxshi sezayotganliklarini aytib maktaydilar, guyo ular tula davolanganlar va endi ularni chikarib yuborish mumkin. Ba'zilar bosh ogrigidan, uykusi yomonligidan, tishlar ogrishidan (xarakterli simptom) shikoyat kiladilar. Bunday xollar odatda 2-4 kunda uz-uzidan yukoladi.

Kasallarning davolash psixoterapevtik ta'sir kursatish bilan birga olib borish zarur. Psixoterapiyaning bosh usuli deb gipnoz va ta'sir utkazish bilan narkotik moddalarga jirkanish va salbik refleks xosil kilish, irodani mustaxkamlash, aktiv soayish uchun tadbirlar turlariga aytiladi.

Trankvilizator moddalar: elenium, seduksen, trioksazin tavsiya etiladi. Bu moddalarning xammasi tinchlantiruvchi ta'sirga ega, bezovta xolatlami, sarosimalikni yengillashtiradi, lekin ular kichikrok mikdorda va kiska muddatli davolash kursi bilan beriladi. Depressiyalami (tushkunlik) azofen, amitriptilin yaxshi bartaraf etadi. Uyku buzilishida kechkurun sayr etish, oyoklarga issik vannalar kilish, psixoterapevtik suxbatlar utkazish maksadga muvofikdir. Narkoman va toksikomanlar intellektual jixatdan tez degradatsiyaga (akl pasayishiga) uchraydilar. Befark, befarosat bulib xayotdan. kollektivdan ajralib koladilar. Statsionarga yetkazilgandan ancha ilgariyok ishdan maxrum buladilar, mexnat malakasini yukotadilar.

Davolanishning birinchi boskichi 3-4 xafla davom etadi.

Davolanishning ikkinchi boskichida kun tartibiga albatta mexnat bilan davolashni kiritish zarur. Bu avval oz-oz ish soatlarida, keyinchalik tula ish kuniga kuchirish bilan ruyobga chikariladi. Davolanishning uchinchi - kuvvatlab turuvchi terapiya boskichi uzok (5 yil) davom etadi. Bu davr davomida kasallar narkologik kabinet nazoratida buladilar. Kuvvatlab turuvchi majburiy davolashlar 3-4 xafta mobaynida utkaziladi.

Ten ostiga 0,5 ml. apormofin eritmasi yuboriladi va 5-7 minut utgach, kungil aynash paydo buladi. Kasalga nasha tikilgan, tutagan papirosni xidlatiladi, reflektor boglanish mexanizmi buyicha 3-4 seansdan keyin nashaga salbiy reflekslar paydo buladi. Bemorni mexnat jarayonlariga tortish - davolashning muxim kismidir.

Narkotik iste'mol kiluvchi shaxslar fakat narkomaniya kasal xonalarida 60 kun davomida davolanishadi.

Yana kuyidagilarni xisobga olish kerak buladi: dorilarni kullashda kasallarga bir xil turdagi dorilarni bermasdan, balki bir-necha xil dorilardan foydalanish maksadga muvofik buladi. Bundan tashkari davolanish kursidan keyin inson yana shuguUanmasligi uchun, unga tushuntinsh ishlarini xam jadal olib borish kerak.

Narkomaniyani oldini olish. Narkomaniyani oldini olish uchun keng kulamdagi ishlarni olib borish kerak. Bularga masalan: narkotik moddalari organizmga ta'sir kilib uni umrini kiskartirishi, xar xil ogir kasalliklarni keltirib chikarishi, soch va tishlarini tukilib ketishi, xotirasi susayib esi kirdi-chikdi bulib kolishi, xolsizlik vujudga kelishi, kon aylanish sistemasi yuldan chikishi va kupgina boshka salbiy okibatlariga olib kelishi tugrisida batafsil tushuntirish kerak. Shunday xollar kelib chikmaslik uchun maktab, institut va ish joylarida, maxalla va tumanlarda, kerak bulsa davlatlararo uni oldini olish buyicha tushuntirish ishlarini olib borish va davlat miqyosida shartnomalar tuzish kerak buladi. Targibot-tashvikot, ya'ni televideniye, radio, gazeta va kitoblar orkali amalga oshirish kerak. Narkomaniyani ildizi bilan sugurib tashlash, kelajak avlod aklan yetuk, jismonan soglom bulishini kafolatlaydi. Buning uchun ota-onalar kam uz ugil va kiz farzandlari tarbiyasi bilan shugullanishlari va ularni kuzatib turishlari ayniksa kerak buladi. Xususan Uzbekistonda bu kasallikni oldini olish va kaytarish ishlari shaxsan Uzbekiston Prezidenti I.Karimov tomonidan olib borilayapti va oldi olinayapti. Uzbekiston xududida narkomaniyani yukotish uchun kator konunlar kabul kilingan. Bu konunlarda kimda-kim narkotik xisoblanadigan moddalar chikib kolsa, yoki uni sotayotgan maxalda ushlansa, u kishilarni eng ohy jazo - ulimga maxkum kilinadi. Narkomaniya mustakillikka endigina erishganimizda kupayib ketgan edi. Negaki kushni bulgan Afgoniston va Tojikiston orkali tashib utiladigan narkotik moddalar bizning mamlakat orkali Rossiyaga va Yevropaga chikadi. Bugungi kunda bunday ishlarga chek yuyilmokda va uz-uzidan bu ishlarni payi kuyilmokda. Jaxondagi utkaziladigan davlatlararo uchrashuvlarda xam ana shu narkotik xususidagi masalalar urtaga tashlanib, xal kilinishi kerak bulgan masalalar oldinga maksad kilib kuyilmokda va amalga oshirilmokda.

Xozirgi vaktida oliygoxlarning ta'lim-tarbiyasida, kayta-kurishda yoshlarni ma'naviy, ma'rifiy jixatdan komil inson etib tarbiyalash muxim vazifa kilib kuyilgan. Narkotik moddalarni iste'mol kilish natijasida axlok koidalari buziladi, bezorilik, jinoyat kelib chikadi.

Narkoman bulib kolishning sabablari anchagina xisoblanadi. Usmirin yigit va kizning kayf kilishga xavas kilishi, tengxurlarning ta'siri, guruxlarga kushilib kolishi, oiladagi ayrim noxushliklar, kungilsizlik va boshkalar, narkoman bulib kolishdagi asosiy omillardir. Ota-onalar, gurux murabbiylari, professor-ukituvchilar kuyidagi yoshlarga aloxida e'tibor berishlari zarur: shaxsiy xususiyatlariga kura ruxan turgun bulmagan, xulki uzgaruvchan, biror ishni oxiriga yetkazmaydigan, uzlashtirishi yaxshi bulmagan, davomati past va xokazo.

4. Toksikomaniyalar

Toksikomaniya - bu ayrim preparatlarga, dori vositalariga, kimyoviy moddalarga yoki ma'lum guruxga kiruvchi dori vositalariga urganib kolishlikdir.

Politoksikomaniya - bu ikki yoki undan ortik narkotik moddalarga urganib kolishlik bulib, juda ogir dard xisoblanadi. Bunda alkogolizm + chekish, morfinizm + alkogolizm, toksikomaniya + alkogolizm, nashavandlik + tamaki chekish va boshkalari bulishi mumkin.

Toksikomaniyalarni keltirib chikaradigan moddalarga ximiyaviy, biologik, usimliklarga doir yoki dori vositalar kiradi. Toksikomaniyaiar keltirib chikaradigan moddalar orasida psixotrop moddalar, ba'zi bir uxlatuvchilar va stimulyatorlar katta urin tutadi. Urganish kolshi ikki xil bulishi mumkin. Ushbu moddalami kabul kiluvchi laming ba'zilari eyforiya (kayfichoglik), komfort (osoyishitalik) effeklini olishga urinsalar, boshkalari yomon kayfiyatni, diskomfortni tarkatishga urinadilar. Ikkala xolda xam kerak xolatga erishish uchun moddalami kabul kilishni takrorlab turshiga tugri keladi.

Toksikomaniyalarni keltirib chikaridigan bosh sabablari kuyidagilardir:

ishfokolarning urinsiz, no tugri davolashlaridir

- uykusizlikda, turmushning turli xil noxushlik vaziyatlarida dorilami tez- tez kabul kelish yoki xamisha davolanishga intiladigan, xamma vakt shubxalar orasida yashaydigan shaxslarga dorilar berishi xam axamiyatga ega. Aksariyat, psixopatik (ruxiy uzgarishlari bor) shaxslar urganib koladilar.

Toksikomaniyaning klinik manzarasi, narkomaniya singari kabul kilinadigan moddaning xarakteriga boglik.

Toksikomaniyalarga olib boridigan psixotrop va boshka preparatlar guruxi kuyidagilardir;

1. Psixoleptiklar:

trankvilizatorlar (nozepam, fenazepam, elenium, tazepam, seduksen, sibazon)

- uxlatuvchi moddalar (barbamil, barbital, etaminal-natriy, fenobarbital va boshkalar)

2. Psixoanaleptiklar:

markaziy nerv sistemasini kuzgatuvchi dorilar (sindokarb, sindofen, atsefen, kafein alkoloidlari (choy, kofe)

- boshka xil kuzgatuvchi dorilar (analgetiklar: analgin, amidopirin)

3. Boshkalar:

- Parkinson kasaliga karshi moddalar (siklodol, parkopan, aparkan, romparkin, norakin)
gistalinga karshi moddalar (dimedrol, pipolfen)

Bu moddalarga urganib kolish bir necha yullar bilan shakllanadi:

1. uykusizlikni uzok vakt davolash, bunda dori oldiniga shifokor nazorati ostida berilsa, keyinchalik kasallaming uzlari kabul kiladigan buladilar
2. dori moddalami vrachning maslaxatisiz va nazoratisiz ichshi
3. mazkur moddalami narkotiklar sifatida kabul kilish orkali yuzaga keladi. Uz joniga kasd kilganda. bu dorilardan utkir zaxarlanish yuz beradi.

Uxlatuvchi dorilami sistematik tarzda kabul kilinganda preparatni ichishga bulgan extiyoji sekin asta oshib boradi yoki unga kuchli extiros payda buladi. Askariyat, toksikomanlar narkotik moddalami kuniga bir necha marta kabul kilishga utadilar. Shaxsning uzgarishi borgan sari anik -

ravshan boladi. Dastlab, jizzakilik, jaxldan "sakrab ketish", egotsentrizmga borib yetadigan xudbinlik, yovuzlik ustun keladi, xotira izdan chikadi, fikrlash sur'ati susayadi, tutkanoklar kuzatiladi.

Xumorlik anik - ravshan ifodolangan buladi, u narkotik moddani ichmay kuygandan keyin 20 - 24 soat utdi deganda yuzaga chikadi va 3 - 4 sutka davomida eng intensiv kuchga kiradi. Xumorlik paytida bezovtalik, uyku buzilishi, xolsizlik, bosh aylanishi, kungil aynishi, kusshi, arterial bosimning keskin tushib ketishi paydo buladi. Tutkanoklar yuzaga keladi. Kasallar ta'sirlanuvchan, gazabkor, yovuz bulib koladi.

Kofein toksikomaniyasining ayrim xollari ba'zan uchrab turadi. Kofeyning katta dozasi kabul kilingandan keyin (chifir, kofe) bir necha soatga chuziluvchi kayflyatning kutarilishi, kuzgalishi yuzaga keladi. Ushbu moddalarni xronik iste'mol kilinganda bemorlarda toksikomaniya paydo buladi. Bosh ogrishi, bosh aylinishi, uykusizlik, xar xil tushlar kurish kayd kilinadi. Vaxima va kurkuvlar, aritmiya, erkaklarda jinskiy kuvvatning pasayshii kayd kilinadi.

Achchik kilib damlangan choy, chifirning urtacha mikdori kabul kilingandan keyin 30-40 dakika utgach, kayfiyat kutarilishi, fikrlash jarayonlarining yengillashishi va ayni bir vaktida "mastlik" xolatining yakkol ifodasi yuzaga keladi, ish kobiliyati kutariladi, charchash bilinmaydi, fikrlar yokimli mazmun kasb etadi.

Xronik iste'mol kilinganda xar xil kuzgalishlar ruy beradi. Asta - sekin shaxs uzgarishi kayd kilib boriladi. kayfiyat uzgarib turishi. uzini tutaolmaslik, arzimaganga tulkinlanib ketish, kezikish doirasining torayishi bilan utadi. Xumorlik uchramaydi. Tamaki chekish toksikomaniyaning turlaridan biridir. Tamkini Yevropaga mashxur dengiz sayoxatchisi Kolumb olib kelgan. Tamaki urugi Fransiyaning kirolichasiga uning Portugaliyadagi elchisi Jan Niko tomonidan tuxfa tarzida yuborilgan cdi. Ok i bat - natijada uning familiyasi tamaki tarkibidagi moddani - nikotin deyilishiga sabab buldi.

Nikotin organizmga nafasga olinayotgan xavo va tamaki tutuni bilan kiradi. Tutun tarkibida turli xil zaxarli moddalar, shu jumladan, kanserogen-xavfli usmalarning rivojlanishini kuchaytiruvchi (stimuliovchi) benzopirin, dibenzopirin, karbonata angidrid (xavoda - 0,046 %, tamakida esa - 9,5 %), uglerod oksid buladi.

Tamaki chekish dastlab, tomok kurishi, kungil aynashi, kusshi kabi noxushliklarni keltirib chikaradi. ammo odam davom ettiraveradi va sekin - asta noxush sezgilar utib odam unga urganib koladi. Kashandalarda asta - sekin nikotin sindromi shakllanadi. Yukori mikdorda nikotin markaziy nerv sistemasini falaj kelish mumkin, 25 dona sigorettagi nikotin mikdori ulimga olib keladi. Nikotin sindromi rivojini uch boskichga bulishi mumkin:

- kishini chekish uziga tortadi, odam borgan sari kuprok sigaret chekadigan buladi. Chekish ish kobiliyatini kutargandek, uzini yaxshi sezgandek xis paydo buladi. Bu boskich 1-5 yil davom etadi.
- chekish shilkim xoxshi xarakteriga ega buladi. Ba'zan, tashkaridagilarga kizik kurinishi uchun, tengdoshlariga kuz-kuz kilish istagida chekiladi. Bu boskichda bronxitlar, me'da-ichaklarda jigildon kaynashi, noxush sezgilar, ogriklar, yurak soxida tezda utib ketadigan noxush sezgilar, tomir

urishining uzgarishi, arterial bosim darajasining uzgarib turishi kuzatiladi. Boshning ogirlashib kolishi, uyku buzilishi, jizzakilik, jaxldorlik, ish kobiliyatining susayishi kayd kilinodi. Bu boskichning davom etishi individual bulib, urtacha 5-20 yil buladi.

- psixik intilishi pasayadi, yekimli xolat bulmaydi. Nikotinning katta dozasi noxushlik keltirib chikaradi. Asta-sekin psixik intilish pasaya boradi, komfort yillar utishi bilan kamayib boradi, keyin avtomatik tarzda chekish odati koladi. Naxorda chekish istagi pay do buladi, ertalabki yutal paydo buladi, uyku buziladi, tomir urishi tezlashadi, arterial bosim kutariladi, kuruk yutal kiynaydi.

Upka sili rivojlanish extimoli ortadi. Rivojlanayotgan 200 sil kasalidan 95 tasida odam chekuvchi buladi.

Kupchilik kashandalar chekishni falokat deb tushinmaydilar, uning zararli okibatlariga yuzaki karaydilar, xatto bezarar deb tushunadilar. Chunonchi, chekmaydigan kishi kup chekilgan xonada 1,5 soat tursa, uning organizmida niko tin ta'siri 8 martaga oshadi. Shunday kilib, kashanda uzi uchun xam, atrofdagilar uchun xam xavtlidir.

5. Uzbekistan Respublikasida giyoxvandlik bilan kurashish.

Xayot uchun zararli ekanligini bila turib xozirgi kunda butun yer yuzi bbiylab giyoxvandlik balosi asrimiz vabosi sifatida tez sur'atlar bilan keng tarkalib bormokda.

Giyoxvandlikning jismoniy va ma'naviy zararlari tugrisida Dune ommaviy axborot vositalari orkali kupdan-kup ma'lumotlar berilayapdi, unga bagishlab kup mamlakatlarda shu jumladan, Uzbekistonda xam kator xalkaro anjumanlar utkazilib kelinmokda, giyoxvandlikka karshi chora-tadbirlar kurish maksadida kuplab max alii y va xalkaro tashkilotlar ta'sis etilgan. Lekin, afsus bu balo va ofat xanuz uz garazli ishini davom kilib kelmokda. Eng achinarlisi shundaki, bu nomuborak kasofat sanalmish giyoxvand moddalami Islom olamida, mumín musurmonman deb yurgan kuplab insonlar tomonidan isle'mol kilinishi, moddiy daromad orttirish maksadida tijorat kilish va kuplab yosh avlodlar uning kurboni bulayotgani chidab bulmas bir ayanchli xoldir. Razolat manbai sanalmish giyoxvand moddalar kattalar, institut talabalaridan tortib, boshlanrich va urta ta'lim dargoxlarida bilim olayotgan yoshlargacha, erkagu ay o liar urtasida barobar ildiz otib, falak yozayotganligi yetuk shaxslarni, idrokli kishilarni albatta befark, koldirma kerak.

Bir marta kabul kilinganda «kayf» beruvchi, kup marta kabul kilinganda «tobe», ya'ni unga urganib kolishga olib keladigan xar kanday moddalarga giyoxvand moddalar deb aytiladi.

J axon SOGLIK.NI saklash tashkilotining ma'lumotiga karaganda bugungi kunda yer kurrasida giyoxvandlik kasalligiga mutbalo bulgan kishilar soni 200 milliondan oshib ketdi. Shulardan 143 mln. ga yakinini marixuana, 30-32 mln. sintetik giyoxvand moddalar, 13,5-14 mln. kokain va 8-10 ml dan kuprok. Odamlar heroin iste'mol kilishar ekan.

Giyoxvandlikning zararlari tugrisida suz borar ekan birinchi navbatda inson salomatligiga

ta'siri xakida gapirib utsak, giyoxvand modda ogiz yoki burun orkali odam organizmiga tushgach, kator uzgarishlarga olib keladi. A sab tizimiga kattik, ta'sir kilib, inson ruxiyatining uzgarishiga olib keladi, bundan tashkari insonda kurish, eshitish, ta'm sezish, fikr yuritish kabi xayot uchun zarur bulgan xususiyatlarning yukolishiga olib keladi. Yurak kontomir tizimida; kon aylanishining buzilishiga, jigarda; parenximatoz xujayralarining shikastlanishi tufayli jigar sirroziga olib kelishi mumkin.

Giyoxvand moddalarni doimiy iste'mol kilishga duchor bulgan kishilar kuyidagi salbiy xolatlarga giriftor buladilar: bularga uxlay olmaslik, xolsizlik, tana muskullarini kakshab ogrishi, ishtaxasizlik, kuzning yoshlanishi, tomirlarning burtib chikishi, gamginlik, yana eng daxshatlisi shuki giyoxdand moddalar ba'zi bemorlarda OITS kasalligining kelib chikishida moyillik yaratar ekan.

Giyoxvandlikning jamiyatga yetkazadigan zararlari bexad kup. Giyoxvandlikka muhtalo bulgan kimsada avvalo uziga, sung oilasiga, kasbiga yoki ukishiga nisbatan kizikish va parvo xislari kolmaydi. Ishlab chikarish va tarakkiyotning asosiy kuchi sanalmish yosh avlodni giyoxvandlikning birinchi navbatdagi kurboni bulishi - bu juda achinarli xoldir. Giyoxvandlikning salbiy okibatlari shaxs va jamiyatgina emas, balki borib-borib butun jamiyatning soglomligi va barkarorligiga putur yetkazishga, siyosiy tuzum va konunchilikning izdan chikishiga xam sabab bulishi mumkin.

Giyoxvandlikning inson jismini kanchalik xarob kilsa, xudi shuningdek, shaxsning va jamiyatning mol-mulkiga va boyligiga xam mislsiz zarar yetkazadi. U tinch-totuv yashayotgan oilalarni buzadi, bolalarni yetim kiladi, kashshoklik, muxtojlikda yashashga majbur etadi, oxir okibat bu kasallik ulim yoki xayotdan maxrum bulish bilan yakun topadi.

Ishlab chikarishda ishlovchi giyoxvand modda iste'mol kilsa, kuyidagi salbiy xolatlar kuzatiladi: ish jarayonida jan-jallashish, ishdan kech kolish, ishga kelmaslik, texnik jixozlarni notufi boshkarish natijasida ularni buzib kuyish, raxbariarga itoatsizlik, ichki va ruxiy kasalliklarga chalinish, sifatsiz va yaroksiz maxsulot chikarish, jamiyat bilan bir safda birga ishlash layokatidan maxrum bulish kabi xolatlar kuzatiladi.

Tarix saboklaridan ma'lumki, mustamlakachi davlatlar kaysi bir kichik mamlakat xalkini uz itoatiga buysundirishni xoxlasa, fakat kuro-l-aslaxa vositasi bilan emas, balki, usha xalkni, ayniksa, yosh laming akl-idrokini, iroda xamda axamiyatini susaytiradigan, ma'navii va axlokiy tushkunlikka tushiradigan vositalarni kullagan. Shunday vositalardan eng kuchlirogi giyoxvand modda sanaladi.

Bu insonning uziga, u yashayotgan mamlakatning iktisodiy va siyosiy tushkunlikka tushishiga olib keladi. Mamlakat uchun yana xatarli jixati shundaki, giyoxvandlikka ruju kuygan kimsalar bu «kimmatbaxo» matoxni muntazam xarid kilib turish uchun pul va mablagga muxtoj buladilar. Moddiy boyligni kulga kiritish maksadida esa ular nafakat uz vatanlarini, balki iymonlarini xam

ar-zonga sotib yuborishga tayyor buladilar.

Yoshlar ma'lumki xozirimizni yarmi balsa, kelajagimizning butun bir yaxlit kishilari sanaladi. Giyoxvandlikning ular urtasida tarkalishi kata yoshdagilar urtasida tarkalishidan kura xatarlirokdir.

Narkotik moddalarning ruyxati birinchi marta 1961 yilda Xalkaro konvensiyada tuzilgan va ularga opiy ,nasha, kokain kiritilgan edi.. 1971 yilda II Xalkaro konvensiyada opiy, nasha, kokainga psixotron moddalar kiritildi. 1981 yilda esa III Xalkaro konvensiyada bu ruyxatga yanada kengaytirildi va ularga prekursorlar kiritildi (atseton,etil spirti, toluol,uksus kislotasining angidridi, feniluksus kislotasi va b.)-

1992 yildan buyon Uzbekiston Respublikasi xam Xalkaro konvensiyaga a'zo bulib kiritildi va bunga tegishli konunlar chikarildi (1995y).

Giyoxvand moddalar buyicha Davlat dasturlari kabul kilindi va ular 2002-2005 yillarga muljallangan bulib, giyoxvandlikka xammaning e'tiborini karatishga bu illatning oldini olishga, tarkatilishini tusishga va giyoxvand moddalarni nazorat kilishga bagishlangan. Bu ishda Ichki ishlar vazirligi va Soglikni saklash vazirligi emas, balki oliy ukuv yurtlari va fukarolar ishtirok etishi lozim.

Ichki ishlar vazirligi xodimlarining axborotiga Karaganda bu illatga yulikkan yoshlarning kupchiligi yaxshi ta'minlangan oilalardan. Mutaxassislarning fikricha, giyoxvand usimliklar yetishtirish Bilan shugullanayetgan afgon tadbirkorlarning yillik daromadlari umumiy xajmda 120-150 milliard dollarni tashkil etadi. Giyoxvandlik savdosidan kelayotgan daromad kurol-yarog biznesidan xam uzib ketdi.

Ma'lumotlar shuni kursatmokdaki, dunyodagi turli xil yirik narkoguruxlar urtasidagi uzaro xamjixatlik Afgonistonda giyoxvand moddalar ekilishi kupayishiga sabab bulmokda. Bevosita ular xomiyligida eng utkir ta'sirga bulgan geroini ishlab chikarishda asosiy komponent xisoblangan yuzlab tonna uksus angidridi kislotasi yetkazib berilmokda.

Bojxona organlari ishinig muxim tarkibiy ktsmi giyoxvandlik moddalari, valuta va boshka kimmatliklar kontrabandasiga karshi kurashidir. Chunonchi, utgan yilning uzida bojxona orgaganlari xodimlari tomonidan boshka xukukni muxofaza kilish tuzilmalari bilan yakindan xamkorlikda 169kg dan ziyod giyoxvandlik moddalari, kuchli ta'sir etuvchi psixotrop xossalarga ega bulgan dori-darmon vositalari: 5 mingtadan ziyod tabletkalar va 253 ampula olib kolindi.

Giyoxvandlik xakida imom At-Termiziy rivoyatlarida "Xar kim Uzini-uzi zaxar bilan uldirsa, kiyemat kunda jaxannam uti bilan azoblanadi " deb aytib utilgan. Bundan tashkari imom Buxoriyning xadis tuplamiga sharx yezgan buyukallomalardan biri Abu Bakr Kasstalloni y giyoxvand modda tulari va uning xaromligiga bagishlab aloxida bir kitob yozganlar va uning nomini "Nashani xarom kilish bilan turmushni ikrom etish" deb

atalganlar. Bunday izoxlarni kurib turib giyexvandlik ofatidan xalkimizni va kelajak aviodni xalos eiish xamda ularni moddiy barkamollik sari yunaltirishdek umumbasharaiy xayrli isblarimizda yaratganning uzi xar birimizga madadkor bulsin.

Adabiyetlar

1. "Giyexvandlikning zararli okiballan" (ma'ruzalar matnlari), Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika universiteti, T..2001 y.
2. E.S. Shamsiyev, M. Rustambayev, "Narkologiya", T.,2003 y.
3. E.S. Shamsiyev, S-Sobirov "Neotlojnaya narkologiya", T.,2003 y.
4. SPID, Narkomaniya. <http://www.gepatit.ru/index/hem>
5. Medinfo <http://www.doctor.ru/medinfo> <http://medinfo/home/m1/ord>
6. <http://week.vnems.mnet.uz/axiv/23/>
7. <http://v.vw.uvestnir/Bv/ru/uv10/>
8. www.narkom.ru